



## SINKRETIZM TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

**Barotova Mubashira Barotovna**

Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti,

Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD,

Email: [mubash286@gmail.com](mailto:mubash286@gmail.com)

**Annotasiya:** Janr sinkretizmi fenomeni muallifning munosabati ta'sirida ma'lum bir asarni yaratishda janr turlarining qo'shilushi va yagona mazmunini anglatishga xizmat qilishga asoslanadi. Bu tushuncha yozuvchilarining turli janr shakllarining mazmuni va rasmiy dominantlariga tabiiy murojaatini anglatadi. Ushbu maqolada sinkretizm konsepti va uning tadqiqatlardagi talqinini ko'rib chiqamiz.

**Tayanch so'zlar:** dramaturgiya, she'riyat, sinkretizm, elementlar kombinasiyasi, lirik element, doston, lirik-epik janr, memuar.

**Abstract:** The phenomenon of genre syncretism is based on the combination of genre types in the creation of a certain work under the influence of the author's attitude and serving to convey a single content. This concept refers to the natural appeal of writers to the content and formal dominants of various genre forms. In this article, we will consider the concept of syncretism and its interpretation in research.

**Key words:** dramaturgy, poetry, syncretism, combination of elements, lyrical element, epic, lyric-epic genre, memoir.

**Аннотация:** Явление жанрового синкремизма основано на сочетании жанровых типов при создании определенного произведения под влиянием авторского мироощущения и служит для передачи единого содержания. Под этим понятием подразумевается естественное обращение писателей к содержанию и формальным доминантам различных жанровых форм. В данной статье мы рассмотрим понятие синкремизма и его интерпретацию в исследовании.

**Ключевые слова:** драматургия, поэзия, синкремизм, сочетание элементов, лирический элемент, эпос, лирико-эпический жанр, мемуары.

Sinkretizm atamasi keng ko`lamda, turli sohalarda qo'llan atama bo'lib, lot. syncretismus - jamiyatlarning aloqasi, ya'ni shartli birlikni tashkil etuvchi turli, bir biriga o'xshamaydigan fikrlash va qarashlarning uyg'unligini tavsiflash degan ma'noni anglatadi. Bu atama san'atning umumiyligi sohasi bilan bir qatorda musiqa, raqs, dramaturgiya va she'riyatning rivojlanish tarixiga nisbatan ham qo'llaniladi. Ayrim manbalarda sinkretizm, keng ma'noda, har xil badiiy janr namunalarning qo'shilushi bo'lib, janrlar rivojlanishining dastlabki bosqichlariga xosdir, deb ta'riflanadi. Bu





atama ko'pincha san'at sohasiga, musiqa, raqs, drama va she'riyatning tarixiy rivojlanishiga nisbatan qo'llaniladi.

Sinkretizm - turli falsafiy tamoyillarning bir tizimga birlashishini anglatadi. Nazariy tushunchalarga ko'ra sinkretizm eklektizmga yaqin keladi. Eklektizm (qadimgi yunoncha "men tanlayman") - boshqa falsafiy tizimlardan olingan turli pozitsiyalarni birlashtirib, falsafiy tizimni qurish usuli hisoblanib, tanqid orqali izchil tamoyillarni turli tizimlardan ajratib oladi va ularni bir butunga uzviy bog'lashga harakat qiladi. Sinkretizm esa janrlar birlashuvi bo'lib, yaxlit bir yangi janrning yaralishini anglatadi.

Sinkretizm hodisasini o'rganish san'atning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi masalalarini hal etishda nihoyatda muhimdir. Bu tushunchani lirik element: lirik she'r, lirik drama, lirik roman, dramatik shakldagi she'rlar va romanlar ustunlik qiladigan poetik janrlarning qo'shiluvida kuzatishimiz mumkin. J.V.Loven sinkretizmni «turli madaniyatlar elementlarining kombinasiyasi bo'lib, biror narsani yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. U dinlar, hikoyalar, she'rlar va boshqa ko'p narsalarga asoslangan», – deb ta'riflaydi. A.N.Veselovskiyning fikricha esa sinkretizm "qo'shiq bu musiqa va so'z elementlari bilan ritmik, orkestik harakatlar kombinatsiyasi".

Janr sinkretizmi janrlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ya'ni tabiatli noaniq bo'lgan turli janr shakllari bir asarda birlashadi. Bunday qo'shilish natijasida yangi estetik voqelik shakllanadi. Masalan, doston lirik-epik janr sifatida hikoyaviy she'rdir, uning asosini g'ayrioddiy voqeа tashkil etadi, unda inson va jamiyat, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning muhim tomonlari va inson shaxsiyatining ustun xususiyatlari aks etadi. Bu dramatik syujetli, ohangdorlik va musiqiylikka ega kichik asardir. Demak, doston hikoya va qo'shiq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, ikki janrga asoslangan sinkretizatsiyadir. O'zbek xalq dostonlariga "Oysuluv", "Shirin bilan Shakar", "Rustam", "Malika ayyor", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Alpomish", "Avazxon", "Oshiq G'arib" kabilarni misol qilish mumkindir.

Yoki badiiy-tarixiy janr shakllariga memuar va badiiy-biografik asarlarni misol qilishimiz mumkin. Chunki ular tarixiy yoki yahotiy faktlarga asoslanadi va bo'lib o'tgan aniq voqealar tasvirlanadi. Bunda yozuvchining dunyoqarashi muhim rol o'ynaydi. Chunki, adib o'sha davr voqealarini bevosita va ishonchli tasvirlash bilan birga, xalq va davr mintalitetini chuqur anglashi va uni badiiy vositalar yordamida kitobxonga aslicha yetkazib berish mahoratiga ega bo'lishi lozim. Zore, tarixni bilish





boshqa, uni yetkazib berish butunlay boshqa sohadir. Nosir Hisravnchnt "Safarnoma", Zayniddin Vosifiynnng "Badoye ul-vaqoye", Boburning "Boburnoma" asarlari shular jumlasidandir.

Romanlashuv esa kundalik komediya, fars, melodrama, axloqiy va'z, ekzistensial tragediya va ruhiy dramani o'zida birlashtirgan sinkretik janr shakllanishidir. Bunda janr sinkretizmi bir asar doirasida janrlarning o'zaro ta'sirining turli xususiyatlari va usullarining o'zgaruvchanligini nazarda tutadi; uning doirasida ko'p o'lchovli janr tizimi ochiladi, uning elementlari roman-xronika, roman-risola, roman-esse, roman-tragediya, roman-mif, roman-qissa, roman-utopiya, roman-epopiy, menippea. Janrlarning differensial xususiyatlarining, ya'ni tragediya, gagiografiya, risolalar, mifologiyalarning birlashuvidan "sinkretistik roman" paydo bo'ladi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", Mixail Sholoxovning "Tinch Don" asarlari roman-epopiy turiga kiradi. Shuningdek, o'zbek milliy yozuvchilardan Erkin A'zam ijodidan epik turning barcha janrlari: yangi kinoqissa (Suv yoqalab, Zabarjad), dramatik qissalar (Jannat o'zi qaydadir), publisistik miniatyuralar (Buyuk umidlar pallasi, Vatan qanday yuksaladi, Boy bo'layin desangiz, Inson o'zing va hkz) o'rin olgan.

Adabiy janrlarning rivojlanishi janr shakllari va syujet mazmunining qo'shilushi va yaxlit bir butunlikni hosilqilishi bilan bog'liq. Natijada, yuqorida berilgan misollar kabi intergeneric sinkretik janrlar paydo bo'ladi va ularning har biri strukturaviy yaxlitlikka ega bo'ladi. Ayrim janrlarni va ularning sinkretizmda berilishini ko'rsak.

Lirika, lirik she'riyat (yunoncha lyríkos - "lira tovushlariga ijro etilgan, sezgir, lirik") - sub'ektiv shaxsiy tuyg'uni (biror narsaga munosabat) yoki muallifning kayfiyatini aks ettiruvchi adabiyot turi. Ojegovning lug'atiga ko'ra, lirizm tajribalarda, kayfiyatda sezgirlik, hissiy tamoyilning yumshoqligi va nozikligini anglatadi; T.Efremova lug'atida ko'ra, lirika shoirning o'zigagina xos bo'lgan emotsiyonallik, she'riy tuyg'u, samimiylikni bildiradi; L.Krysinning lug'atiga ko'ra, lirik she'r shoirning his-tuyg'ularini, kechinmalarini ifodalovchi she'rdir.

Doston – xalq hayotining yaxlit manzarasini o'zida mujassam etgan, qahramonlar olamini uyg'un birlikda aks ettiruvchi o'tmish haqidagi qahramonona hikoya qiluvchi adabiyot turi. Ko'pincha dostonlarning muallifi bo'lmaydi. Ular xalq og'zaki ijodi hisoblanadi va xalqlarning o'tmish hayot tarzi mintelitetini, orzu-umidlarini o'zida aks ettiradi. Lirika va doston uyg'unligi ballada janri shakllarini beradi. Ballada (frans. ballade - raqsga tushaman) – XIV-XV asrlar fransuz adabiyotidan o'rin olgan lirik janr





bo'lib, ingliz xalq poeziyasida liro-epik janr ballada deb yuritilgan. Romantik ballada fantastika, folklor, afsonaviy - tarixiy, maishiy mavzudagi syujetga ega she'riy asardir. S.Saroyining "Suxayl va Guldursun", A.Navoiyning "Xotami Toyi" kabi mumtoz adabiyot namunalarini va M.Shayxzodaning "Sulh daraxti", H.Olimjonning "Jangchi Tursun", G.G'ulomning "Suv va nur" kabi zamonaviy adabiy asarlar o'zbek adabiyotidagi balladaga misol bo'la oladi.

Yoki, dramatik element lirizm va dramaning sinkretizmi asosida yuzaga keladi. Drama (qadimgi yunoncha: drama – "harakat") - badiiy adabiyotning epos, lirika kabi asosiy turidan biri. Dramada ijtimoiy muammolar qahramonlarning xatti-harakatlari, dialog va monologlar orqali ifodalanadi. Drama janrlari tragediya, komediya, tragikomediyalar badiiy adabiyotning yetakchi janrlariga aylangan. Unda insonning ziddiyatli hayoti ifodalanadi. Lirk dramada ham shu janrlar lirika bilan hamohang ifodalanadi. E.Vohidovning "Istanbul fujiasi", A.Oripovning "Sohibqiron", U.Qo'chqorning "Rasululloh kotibi", R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlari lirk dramalarga misol bo'la oladi.

Shu o'rinda lirk shakllarning sinkretlashuvi tushunchasining ahamiyatini ko'rib chiqsak. Bu atama akademik A.N.Veselovskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u poetik shakllarning bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rgangan. Qadimgi Yunonistondagi she'riy shakllarga misol sifatida Gomerining "Iliada", Gesiod she'riy miflari, Esxil va Sofokl dramalarini keltirish mumkin. Yunonistonda vujudga kelgan bu she'riy janrni boshqa millatlar adabiyotida ham uchratish mumkin. Yunon olimlari ma'lumotlariga ko'ra, Apollon sharafiga yaratigan lirk shakldagi madhiyalar Gomerining she'riy dostonlaridan ham oldin mavjud bo'lgan. Demak, lirk asarlar xalqlarning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Ular dastlab marosim qo'shiqlari sifatida, xalqning ehtiyojlari, orzu umidlarini yoki ma'lum bir voqeа hodisani tasvirlab, unga munosabat bildirib bitilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Vaqt o'tishi bilan ular dostonlar shaklida xalq orasida ma'lum va mashhur bo'ldi va asrlardan asrlarga xalqlar orasida ommalashdi. O'zbek va qardosh mamlakatlarda ular hatto baxshilar tomonidan kuyylanib, baxshichilik san'atiga asos solindi.

Rus olimi A.Veselovskiy ham sinkretizm masalalarini o'rganar ekan, "She'riyatdagi sinkretizm atamasi bugunga qadar adabiy tanqidchilarning juda bahsli ta'riflariga sabab bo'lgan", degan fikrni bildiradi. U sinkretizmni ibridoiy xalqlarning maishiy hayoti aks etgan og'zaki ijod namunalari deb ifodalaydi. Shuningdek,





sinkretizm sintezidir. Qolaversa, bu atama madaniy jihatdan taraqqiy topgan xalqlarning o'zaro ijobiliy yoki qarama qarshi hayot tarzining ijodga ko'chishini ham aks ettiradi. A.Veselovskiy xalq og'zaki ijodi namunalarida va zamonaviy adabiyotda janriy uyg'unlik mavjudligini ta'kidlaydi. Bu bilan u sinkretizmning ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib bog'lanishini asoslaydi, antik davr adabiyotida, dramatik asarlarda namoyon bo'lganligini tasdiqlaydi. Bunga sabab, qadimgi yunon adabiyotidagi dramatik asarlarning she'riy yo'l bilan yozilishi, deb ko'rsatadi.

Xulosa o'rnidida shuni ta'kidlash lozimki, sinkretizm, janrlarning qo'shiluvi va rivojlanishi antiq davr xalqlari, ularning hayot tarzi, urf-odatlari, marosimlari, milliy qahramonlarni madh etish kabi amallari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dastlab tovush, so'ng ohang, kuy, harakatlar, she'rlar uyg'unligi bilan ifodalangan. Keyinchalik bunday janr qo'shiluvi adabiyotning barcha janr va turlariga xos xusussiyatga aylangan va sinkretizm yordamida yangi turdag'i o'ziga xos asarlar vujudga kelgan va har bir xalqning adabiy me'rosining boyishiga asos bo'lgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Бройтман, С.Н. Историческая поэтика / С.Н. Бройтман. – М., 2001.
- Литературная энциклопедия терминов и понятий. – М., 2001.
- Основы литературоведения: учеб. пособие / В.П. Мещеряков, А.С. Козлов. – М., 2000.
- Поспелов, Г.Н. Теория литературы: учебник для ун-тов / Г.Н. Поспелов. – М., 1978.
- Теория литературы: учеб. пособие для студ. филол. фак. вузов: в 2 т. / под ред. Н.Д. Тамарченко. – М., 2004.
- Тишунина, Н.В. Языки литературы XX века // В диапазоне гуманитарного знания. Сборник к 80-летию профессора М.С. Кагана. Серия «Мыслители», выпуск 4. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. – С. 424–432.
- Хализев, В.Е. Теория литературы / В.Е. Хализев. – М., 2002.
- Baratovna, B.M. (2018). The concept of pedagogical technology in educational practice. *Научные исследования*, (6 (26)), 56-57. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-concept-of-pedagogical-technology-in-educational-practice>
- Baratovna, B. M. (2018). Modern integrations and their benefits in teaching process. *Научные исследования*, (3 (22)), 53-54.





<https://cyberleninka.ru/article/n/modern-integrations-and-their-benefits-in-teaching-process>

10. Barotovna, B. M. (2018). Visibility as a means of creating communicative motivation on teaching oral communication. Academy, (5 (32)), 74-75.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/visibility-as-a-means-of-creating-communicative-motivation-on-teaching-oral-communication>
11. Barotovna, B. M. (2021). DEVELOPMENT OF LISTENING SKILLS AT THE SENIOR STAGE OF TEACHING ENGLISH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(10), 119-127.  
<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/398>
12. Barotova Mubashira Barotovna (2018). Taking comparison in English and Russian languages in their specific peculiarities. Academy, (5 (32)), 76-77.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/taking-comparison-in-english-and-russian-languages-in-their-specific-peculiarities>
13. Barotova Mubashira Barotovna (2019). Actuality of distance learning at present education. Достижения науки и образования, (7 (48)), 55-56.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/actuality-of-distance-learning-at-present-education>
14. Barotovna, B. M. (2017). Typology of English and Russian phonological systems. Вопросы науки и образования, (5 (6)), 85-87.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/typology-of-english-and-russian-phonological-systems>

